

Hudning hikmati



15:00 / 23.01.2021 2463

Hud qavmiga nasihat qilib, ularni hikmat va muloyimlik bilan da'vat qilishda davom etdi.

Hud: «Ey qavm! Men sizlarni akangiz va kechagi do'stingizman. Meni tanimayapsizlarmi? Ey birodarlarim! Nimaga mendan qo'rqib, qochib, uzoqlashyapsizlar? Men sizlarni molingizdan biror narsa nuqsonga yetkazmayapman-ku? **«Ey qavmim, bu (da'vatim) uchun sizdan mol so'ramayman. Mening ajr-mukofotim faqat Allohning zimmasida-ku?»** (Hud surasi, 29-oyat).

Ey qavmim! Nima uchun Allohga iymon keltirishdan qo'rqasizlar? Allohga qasamki, sizlar Allohga iymon keltirsangiz, molingizdan biror narsa yo'qotmaysizlarku?! Balki Alloh sizning rizqingizga baraka beradi va quvvatingizni oshiradi-ku? Ey qavmim nima uchun men olib kelgan risolat-

dindan ajablanasizlar? Albatta Alloh birma-bir kishilarga so'zlamaydi-ku?! Albatta Alloh har bir kishiga xitob qilib: «Unday qil, bunday qil, demaydi-ku? Albatta Alloh har-bir qavmga o'zlaridan bo'lgan elchini ularga so'zlab, nasihat qilishi uchun yuboradi-ku. Axir meni sizlarga, gapirib, nasihat etishim uchun elchi qilib yubordi. **«O'zingizdan bo'lgan bir kishiga sizlarni ogohlantirish uchun Robbingizdan eslatma kelganidan ajablandingizmi?!»** (A'rof surasi, 63-oyat).

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad